

SURXONDARYO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“O‘QUVCHILARDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH VA RAQAMLI DUNYONI O‘RGANISHLARINI TASHKIL ETISHNING ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

(2024-yil, 15-oktyabr)

TERMIZ-2024



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIVLIK FIKRINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Uljalg‘as Tulegen qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik fikrini rivojlantirishning pedagogik-psixologik tomonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, qobiliyat, iste’dod, shaxs.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi kreativlik qobiliyati ma‘nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Kreativlik qobiliyatlarning tarkibiy qismlari masalasi bo‘yicha yuqorida keltirilgan nuqtai nazarlarni tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, ularni aniqlashga bo‘lgan yondashuvlar farqiga qaramay, tadqiqotchilar bir ovozdan kreativ tasavvur va kreativ fikrlash sifatini kreativlik qobiliyatlarning majburiy tarkibiy qismlari sifatida belgilaydilar. Kreativlik qobiliyati yuksak kreativ rivojlanish omili bo‘lib, faoliyatning turli jabhalarida, jumladan, nutqiy, yozma-ijodiy va boshqa ko‘pgina turlarda ifodalanadi. Maktab o‘quvchilarida kreativlik qobiliyatni rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o‘zo‘zini faollashtirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o‘quv jarayonida ta’limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Qobiliyatlar ruhiy-individual xususiyatlar majmui hisoblanib, mahsuldor faoliyat uchun muhim bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash imkonini beradi.

Qobiliyatlar uchun faoliyat suv va havoday zarur (faoliyat uning shakllanishi va rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi). Intellektual qobiliyat tushunchalardan foydalana bilish, mantiqiy umumlashma mulohaza yuritish mahoratini anglatadi. Kreativlik ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilar belgilandi: maqsad qo‘yish va uni amalga oshirish imkoniyatlarini bilish, o‘z maqsadini tushuntira bilish; bilish vazifalarini shakllantirish va farazlarni ilgari surish; o‘zining o‘quv-bilish faoliyatini tahlil qilish; mustaqil ravishda bilim egallash; kreativlik ko‘rsatkichlaridir. O‘qitishning moduli texnologiyasini joriy etish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ishlashi uchun shart-sharoitlar ta‘minlandi, ular o‘zlarining o‘quv faoliyati jarayoni va natijalarini tahlil qilish hamda nazoratini

amalga oshirish imkoniga ega bo‘ldi, ta‘limning ichki va tashqi maqsadlariga erishishi kafolatlandi. Boshlang‘ich ta‘lim sohasida kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini nazariy tahlil qilish asosan ikkita asosiy masalani hal qilishni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, boshlang‘ich ta‘lim mazmunida kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish mohiyatini aks ettirish;

ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun boshlang‘ich ta‘limning ilmiy va pedagogik salohiyatidan foydalanish. Hozirgi bosqichda yuqoridagi muammolarni hal qilish xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilamiz.

Kreativlik qobiliyatlar tushunchasi zamonaviy pedagogikada keng qo‘llaniladi. Zamonaviy psixologiya kreativlik qobiliyatlarning har xil turlarini ajratadi: ilmiy, iqtisodiy, intellektual, ijodiy, kasbiy va boshqalar.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun ko‘plab mashqlar mavjud. Bunday intellektual o‘yinlar yoki mashqlarning asosiy maqsadlaridan biri odatiy va an‘anaviy fikrlash usullaridan uzoqlashish va yangi g‘oyalarni yaratish sanaladi, keyinchalik ularni baholab va eng foydalisini ajratib olish mumkin. Birinchi yo‘nalish boshlang‘ich sinf o‘quvchining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining tashkiliy yaxlitligini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy fazilatlari faqat umumiy ta‘limning barcha darajalarida samarali tashkil etilgan pedagogik jarayonda shakllanishi mumkin. Bunga o‘qitishning turli xil tashkiliy shakllari, vositalari, pedagogik jarayonning samarali usullaridan foydalanish yordam beradi. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida pedagogik jarayonga ya x lit yondashuvdan foydalanib, biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil qilishning quyidagi uchta yo‘nalishini aniqladik: tashkiliy, mazmunli va sha x siy. Birinchi yo‘nalish eirar x iyaning barCha darajalarida turli x il quyi tizim va tarkibiy qismlar bilan yosh o‘quvChining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining tashkiliy ya x litligini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy fazilatlari faqat umumiy ta‘limning barCha darajalarida samarali tashkil etilgan pedagogik jarayonda shakllanishi mumkin. Bunga o‘qitishning turli x il tashkiliy shakllari, vositalari, pedagogik jarayonning samarali usullaridan foydalanish yordam beradi. Ikkinchi yo‘nalish boshlang‘ich ta‘lim sharoitida o‘quv jarayonining mazmunli yaxlitligini aks ettiradi. Shunda, texnologiyani (mehnatni) o‘rgatish, barcha o‘quv fanlarini o‘qitish kabi, ilmiy, uslubiy, amaliy munosabatlarda yaxlit tizimni aks ettirishi mumkin. Uchinchi yo‘nalish ta‘lim subyektini (kreativlikni o‘rgatish) yaxlit idrok etishni va uni ijtimoiy muhitining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi, unda u

bir vaqtning o‘zida ijodkorlik, kreativlik, mehnat, shuningdek, ko‘p bosqichli ta’lim muhitining obyekti va subyekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Shunday qilib, biz kreativlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nazariy, uslubiy va amaliy tayyorgarligi o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarining obyektiv ko‘rinishiga hissa qo‘shadigan tashkiliy, mazmunli va shaxsiy darajalarda kreativlikni o‘qitishning yaxlit jarayoni tizimining faoliyat yo‘nalishlarini aniqladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva U.T. Use of modern innovative technologies during the lesson // European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Website: www.ejird.journalspark.org ISSN (E): 2720-5746 Volume-10 Dec. – 2022. – p. 5-7.
2. Richardson C., Mishra P. Learning environments that support student creativity: Developing the SCALE // Thinking skills and creativity. 2018. Vol. 27. P. 45-54
3. Chappell K., Craft A. Creative learning conversations: producing living dialogic spaces // Educational Research. 2011. Vol. 53, №3. P. 363-385.
4. Krechetnikov K.G. Designing a creative educational environment based on information technology in a university: author's abstract... doctor of pedagogical sciences: 13.00.08. – Yaroslavl, 2003. 38 p.
5. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>
6. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
7. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
8. Turayev, A. (2023). TIMSS 2023 TADQIQOTIDA RAQAMLI TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA JAVOB FORMATLARI. Interpretation and Researches, 1(1). Извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/859>

исследований, проводимых на основе материалов международных программ оценки.....	
А.Х.Эшанкулова. Трудности и педагогические подходы в освоении русского языка иностранными учащимися.....	491
Ш.И Хўжамбердиева. Бошланғич таълимда фанларни ўқитишда хориж тажрибаларининг ўрни	494
И.И. Абсалямова. Система оценивания знаний учеников в системе среднего общего образования.....	497
А.Ү. Махмудов. Singapur ta’lim metodlarining tabiiy fanlarni o‘qitishda ahamiyati.....	500
SH.O.Qobilova. Boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarda xxi asr ko‘nikmalarini shakllantirishda xalqaro baholash dasturi.....	505
N.M. Sapieva. Tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuv orqali iqtidorli o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	509
Z. Xolmatov. Bola tarbiyasida yaponiya davlatining o‘ziga xos jihatlari ..	513
O.N.Shokirova o‘quvchilarga 5e modeli yordamida “o‘simliklarning xilma-xilligi” mavzusini interaktiv o‘rgatish usullari.....	516
D.E.Mustarova. Steam ta’limga zamonaviy yondashuvlar imkoniyatlari va o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish.....	518
N.Z. Sobirova. Etimologik tahlil asosida talabalarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish tamoyillari.....	521
N.A.Karimov PISA- 2022 xalqaro tadqiqotida matematik savodxonlik qamrov doirasi.....	528
G.Z. Rahmonova. O‘quvchi-yoshlarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda pisa xalqaro tadqiqotidan foydalanish samaradorligi.....	533
M.I. Boymanova. Pisa xalqaro baholash dasturida kreativ fikrlash qamrov doirasida o‘quvchilar kompetentsiyasini baholash va shakllantirish mazmuni.....	537
S.B. Qahhorova. O‘quvchilarning ijodiy fikirlashini rivojlantirishda pirls topshiriqlarining o‘rni.....	542
U.A.Abdullayeva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik fikrini rivojlantirish.....	547
S.B. Qahhorova. O‘quvchilarning ijodiy fikirlashini rivojlantirishda pirls topshiriqlarining o‘rni.....	550
B.A. Eshmanova. Xalqaro baholash dasturlarining ta’lim tizimidagi o‘rni.....	554

4-SHO’BA

FAN O‘QITUVCHILARINING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI